

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIV-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

- Кошелев А.Д. О сущности комического и природе смеха (когнитивный подход)// Вопросы философии. 11.10.2013.
- Белокурова С.Н. Словарь литературоведческих терминов // С.Н. Белокурова. – СПб.: Паритет, 2007.
3. Любимова Т.Б. Комическое, его виды и жанры. М.: Знание. 1990.
4. Сафонова Е. В. Формы, средства и приёмы создания комического в литературе. М.: Молодой ученый, 2013.
5. Борев Ю.Б. Эстетика: учебник. М., Высш. шк. – 2002.
6. Глинка К. Теория юмора. М. Изд.: Хоружевский А.И., 2008
7. Виноградова Е.С. Сатира и юмор в журналистике. Курс. работа. Тольятти, 2010
8. Специфика использования комического в журналистском тексте на примере нижегородской еженедельной газеты «Новое дело». URL: <http://bibliofond.ru/detail.aspx?id=670284>
9. Тепляшина А.Н. Творческая природа комического: Автореф. дис. – СПб., 2007
10. Ткаченко А. Языковые индикаторы комической тональности речевых актов. Харьков, 2015.

FRANSUZCHA MATBUOT MATNLARIDAGI IBORALARNING AYRIM SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna
Dotsent, filologiya fanlari nomzodi
Miyassarova Nozima Ahmad qizi
SamDChTI magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Maqola saylovlar haqidagi matbuot matnlarida uchraydigan turg'un ibora hamda so'z birikmalarining ayrim semantik turlarini o'rganishga bag'ishlangan. Saylovlar haqidagi maqolalarda frazeologik va nofrazeologik xarakterdagi so'z birikmalaridan foydalanish ekspressivlik va muntazamlilik antinomiya bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: turg'un iboralar, turg'un so'z birikmalari, frazeologik va nofrazeologik birliklar, adresant, adresat, informativ funktsiya, emotiv funktsiya

Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida til vositalarining nutqdagi tejamkorligi matbuot matnlarida barqaror konstruksiyalarni ya'ni turg'un iboralarni qo'llash hisobiga amalga oshiriladi. Barqaror konstruksiyalar matbuot matnlarining asosiy funktsiyasi hisoblanmish axborotni yetkazishni muvaffaqiyatli bajarishga javob beradi: "tayyor nutq formulalari matnlarning umumiy tushunilishiga, shunga ko'ra ularning axborotlilikiga yordam beradi". [Dridze 1971:170] Turg'un iboralar matbuot matnlarini yanada boyitish hamda butun omma tomonidan aniq, oson va tez tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida jurnalistlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Ushbu maqola saylov kompaniyasining ayrim jihatlarni tavsiflovchi matbuot matnlarida qo'llaniladigan barqaror, takrorlanadigan iboralarning asosiy turlarini aniqlashga harakat qiladi. Ushbu mavzu bo'yicha maqolalar har xil turg'un

iboralar uchun qulay zamin hisoblanadi. Tahlil uchun material sifatida biz fransuz jurnalistlarining 2008-yilgi prezidentlik saylovi kompaniyasini yoritgan maqolalarini tanladik.

Saylovga oid maqolalarda turg'un iboralarning turli xil semantik turlaridan foydalaniladi. Saylovoldi tashviqotining borishini tasvirlash uchun jurnalistlar ko'pincha: *"entrer en campagne"*, *"gagner du terrain"*, *"faire la course en tête"*, *"guerre électorale"*, *"argument de poids"*, *"cheval de bataille"*, *"chauds partisans"*, *"passer à l'offensive"* kabi iboralardan foydalanadilar.

Saylovoldi tashviqot jarayoni davomida jamoatchilik fikri so'rovi natijalarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Ushbu holatni yoritishda quyidagi turg'un iboralardan foydalaniladi: *"perdre pied dans les sondages"*, *"donner une avance de ... %"*, *"caracoler en tête"*, *"pointer en tête"*, *"enregistrer une avance"*, *"obtenir le meilleur score"*, *"atteindre le second tour"*.

Saylov jarayonini tavsiflashda ham boshqa turg'un iboralardan foydalaniladi: *"s'affronter au second tour"*, *"veiller au déroulement du scrutin"*, *"en présence des observateurs internationaux"*, *"s'abstenir de voter"*, *"le taux de participation"*.

Saylov natijalari esa quyidagi so'z birikmalari yordamida tavsiflanadi: *"une victoire écrasante"*, *"une victoire historique"*, *"le vainqueur du scrutin"*, *"récupérer la majorité des voix"*, *"remporter la majorité des voix"*, *"obtenir ...% des suffrages"*, *"gagner le second tour"*.

Ushbu semantik turdagi so'z birikmalarida harbiy terminologiyaning keng qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin: *"champ de bataille"*, *"guerre électorale"*, *"sortir de la tranchée"*, *"une citadelle assiégée"*.

«Reste que quand on examine la carte des dix États du **"champ de bataille"** qui déci deront de l'élection on constate que les deux camps sont partout au coude à coude» [www.lepoint.fr 19.09.2008].

Saylov haqidagi maqolalarda odatda sport musobaqalari sharhlarida qo'llaniladigan turg'un iboralar katta rol o'ynaydi: *"sprint final"*, *"battre le record"*, *"l'équipe de rêve"*, *"faire la course en tête"*, *"victoire sur un score écrasant"*, *"renvoyer la balle"*. Misol keltiramiz:

«Quelques minutes plus tard, Barack Obama lui a **renvoyé la balle**: «Personne ne sait mieux que Mme Clinton combien l'Amérique et les Américains ont éperdument besoin de changement...»» [www.humanite.fr 09.06.2008].

Mazkur turdagi maqolalarda publitsistik usulning o'ziga xos xususiyati: ta'sir va xabar funksiyalarining o'zaro hamkorligi aks ettirilgan. Bu ishlatilgan barqaror nutq birliklarining xususiyatini belgilaydi. Ularning aksariyati matbuotda ko'p marotaba takrorlanadigan neytral, turg'un iboralardir: *carrière politique*, *campagne présidentielle*, *majorité des voix*, *sortir vainqueur*, *futur historique*. Bunday iboralarning o'ziga xosligini qayd etib, N. A. Amosova ta'kidlaydi: "o'zgaruvchan birikmalarning oddiy takrorlanishidan farqli o'laroq, barqarorlik nafaqat tildan tashqari omil (nutq predmetining takrorlanishi, nutq vaziyatlarining mos kelishi), balki shu bilan birga til ichki omili – nutq uzusining ta'siri natijasidir.... Nutq uzusi (odati, me'yor va talablari) bunday kombinatsiyalarni ma'lum bir frazemaga aylantiradi" [Amosova 1963: 103]. Ushbu guruhga terminologik iboralarni ham kiritamiz: *crise financière*, *déficit budgétaire*, *front national*.

Bunday iboralar komponentlarining to'liq yoki qisman o'zgarishi bilan tavsiflanmaydi, shuning uchun ular frazeologik birliklar emas. Komponentlarning semantik o'zgarishi bo'lmagan iboralarni frazeologiyaga kiritmaslik A.I. Smirnitkiy tomonidan taklif qilingan. "Bu takrorlangan birliklar frazeologik birliklar yoki "so'z ekvivalentlari" emas... Ular, frazeologik birliklardan farqli o'laroq, semantik jihatdan aniq ajralib turadigan qismlardan tuzilgan: garchi ular butun, tayyor birlik sifatida ishlatilsa ham, har bir tarkibiy qismning ahamiyati so'zlashuvchilar tomonidan aniq anglanadi " [Smirnitkiy 1956:230].

Ushbu turdagi maqolalarda emotsional bo'yoqlangan leksika ham uchraydi, frazeologik birliklar, ya'ni to'liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma'noga ega so'zlarining barqaror birikmalari qo'llaniladi. Bunday iboralar saylovlarga xos bo'lgan raqobat muhitini ifodalaydi: *donner le feu vert, Bérézina électorale, caracoler en tête, perdre pied, laisser le champ libre*. Masalan quyidagi parchada shu kabi iboraning qo'llanilish holatini ko'rishimiz mumkin:

«En août, Obama **caracolait en tête** dans ce groupe (50 % contre 38 %) ; à présent c'est McCain, ou plutôt Palin, qui sont largement les préférés des électrices blanches (53 % contre 42 %)» [www.lepoint.fr 09.09.2008].

Frazeologizmlar hamda frazeologik xarakterga ega bo'lmagan, turg'un birliklar o'rtasidagi oraliq pozitsiyani ma'nosi uning tarkibiy qismlarining yig'indisiga teng bo'lgan turg'un so'z birikmalari egallaydi [Minova 1987]: *marge de manœuvre, ligne de conduite, franges de l'électorat*. Bu kabi turg'un so'z birikmalarida semantik jihatdan asosiy bo'lgan komponent ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lsa-da, bu ma'no lug'aviy ma'nodir: *marge* – imkoniyatlar, chegaralar; *frange* - ozchilik, qism.

Gazeta maqolalarining ushbu turida frazeologik birliklar va turg'un nofrazeologik so'z birikmalaridan foydalanish muntazamlilik va ekspressivlik antinomiyasidan iborat bo'lgan til qonuniyatidan kelib chiqadi. Uning mavjudligining asoslari tilning informativ va emotiv funksiyalaridir.

Informativ funksiyasi bir xil turdagi, standart, muntazam ravishda shakllanadigan til vositalaridan foydalanish bilan ifodalanadi. G. Ya. Solganik ta'kidlaganidek, «nutqni standartlashtirish - bu muloqotning turli sohalari va maqsadlari uchun sig'imli, kommunikativ jihatdan mos tayyor nutq formulalarini yaratishga qaratilgan tabiiy, ob'ektiv jarayon ...

«O'ziga xoslikni yo'qotganda frazeologizm struktur-semantik namunaga aylanadi va so'zlarning o'zgaruvchan-barqaror birikmalari sinfiga o'tadi» [Kunin 1970]. Masalan, saylov haqidagi maqolalarda ko'pincha *jouer la carte* iborasi ishlatiladi. Quyidagi ibora yozma matbuotning ushbu bo'limida ko'p takrorlanadigan o'zgaruvchan barqaror iboralarni shakllantirish uchun asos yaratadi: *carte électorale, carte sociale, carte raciale, carte populaire*.

«Dimanche soir, à J -51, la **carte électorale** de Real Clear Politics continuait de rougir (c'est-à-dire de tourner à l'avantage des républicains)» [www.lepoint.fr 15.09.2008].

O'zgaruvchan-barqaror birikmalar sinfiga quyidagi iboralarni ham kiritishimiz mumkin: *camp démocrate, camp républicain, camp conservateur*. Birikmaning kontekstda qo'llanilgan holatiga misol keltirsak :

«Selon le quotidien USA Today, qui publie le sondage, il s'agit de la plus importante avance du **camp republicain** sur les démocrates depuis le mois de Janvier» [www.lepoint.fr 08.09.2008].

Bu kabi iboralar ko'chma ma'noga ega bo'lishiga qaramasdan, standartlashtirilgan, tipik va klishe bo'lib qolgan. Ular emotivlik funksiyasidan ko'ra informatsionlik funksiyasini bajarishga ko'proq mas'uldirlar. Shuni ta'kidlash kerakki, bir xil turg'un iboralar bir vaqtning o'zida informatsionlik va emotivlik funksiyasini bajarishi mumkin. Masalan, adresant g'azab yoki quvonchni ifodalash uchun ekspressiv elementlardan foydalansa, ular, albatta, informatsiya uzatadi.

O'tkazilgan tadqiqot semantikasi, stukturasi va ma'no bog'liqligi nuqtai nazaridan turg'un iboralarning asosiy turlarini aniqlash imkonini berdi. Ko'rinib turibdiki, ushbu pressa bo'limi klisheklarining struktur xarakteristikasi matbuot matnlarining boshqa turlarida uchraydigan turg'un iboralarning sintaktik modellariga mos keladi.

Ma'nolar bog'liqligi darajasiga ko'ra ushbu turg'un iboralarning tavsiflariga keladigan bo'lsak, nofrazologik va frazeologik xarakterdagi klisheklarni qo'llanilishini ta'kidlashimiz mumkin. Nofrazologik xarakterdagi klisheklar adresant tomonidan adresatga ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Ko'plab komponentlari to'liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma'noga ega so'z birikmalari jurnalistlarning adresatga ta'sir o'tkazish istagidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1963. 208 с.
2. Дридзе Т. М. Ассоциативный эксперимент в конкретном социологическом исследовании // Семантическая структура слова. Психологические исследования. М.: Наука, 1971. С. 169–178.
3. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. М.: Изд-во лит. на иностр. яз., 1956. 260 с.
4. Сувонова Н. Comparative analysis of the “white colour” in linguistics, psychology and the “holy qur'an”(in the example of French and Uzbek) //Международный журнал языка, образования, перевода. – 2021. – Т. 4. – №. 2.
5. Gazeta «L'Humanité» [Electronic resource]. URL: <http://www.humanite.fr>
6. Gazeta «Le Point» [Electronic resource]. URL: <http://www.lepoint.f>

“FASHION” TERMINING LINGVISTIKADA TUTGAN O'RNI

Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi

Ingliz tili o'qituvchisi

Ingliz tili va adabiyoti kafedراس

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Andijon Davlat Chet Tillar Instituti,

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Lingvistikani o'rganib borar ekanmiz, tilshunos sifatida har bir termini o'rganib boramiz. Fashion termini qachon va qayerdan paydo bo'lgani va sohaning qaysi jabhalarida keng qo'llanilishi yoritilgan. XX asr va XXI asrlar

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

68.	IJODKOR ASARLARI LUGATSHUNOSLIGI Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich	219
69.	TURG'UN BIRIKMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI Askarova Iroda Abdumali kizi	223
70.	INGLIZ TILIDAGI SUPERSEGMENT BIRLIKLAR (BO'G'IN, URG'U, INTONATSIYA) NING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI Saynazarova Mashhura	226
71.	ТУРЛИ ТАРИХИЙ ДАВРЛАРДА ХУШМУОМАЛАЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ Мавлонова Ўғилой Ҳамдамовна	230
72.	MEDIA MATNLARIDA KOMIKS TUSHUNCHASINING TALQINI. (JURNALISTIKA SOHASIDA) Axmedova Gulxumor Nodirbek qizi	233
73.	FRANSUZCHA MATBUOT MATNLARIDAGI IBORALARNING AYRIM SEMANTIK XUSUSIYATLARI Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna Miyassarova Nozima Ahmad qizi	236
74.	“FASHION” TERMINING LINGVISTIKADA TUTGAN O'RNI Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi	239
75.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TOPONIMIK KONVERSIYA MASALASI Pazilova Nasibaxon Muhammadqosimovna	241
76.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK MAYDON KO'LAMI No'monova Zebinso Usmonjon qizi	245
77.	FRANSUZ MATBUOT MATNLARIDA SHOK-TAYMENTNING FRAZELOGIK BIRLIK KLAR ORQALI IFODALANISHI Suvonova Nigorabonu Norboyeva Nuriniso	249
78.	PLACE OF ORIENTAL LANGUAGES IN THE FRENCH DICTIONARY Xasanova Dilnoza Tojiddinovna	252
79.	THE CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S SPEECH AND ITS THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS Davlatova Xulkaroy PhD Shohrux Ergashev Qurbonali o'g'li ,	255
80.	DESCRIPTION DES CEREMONIES RELIGIEUSES DANS LE ROMAN DE “SALAMMBO” Mamadaliyeva Shaxzoda Qilicheva G.N.	257
81.	“QISSASI RABG'UZIY” ASARIDA QO'LLANGAN IBORALARNING SHAKLLANISH ASOSLARI. TIL LEKSEMASI ASOSIDA IFODALANGAN FRAZELOGIZMLAR U.Farmonova	259
82.	BALZAK ASARLARIDAGI IJTIMOYIY-AXLOQIY MA'NONI BERUVCHI SO'ZLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI Razoqova Gulchiroy Suvonova N.N.	262
83.	SAYOHAT TERMINLARINING NUTQDAGI LINVOMADANIY VA LINVOPRAGMATIK JIHLTLARI TADQIQI G'oyiberdiyev Farog'iddin Dilshodbek o'g'li	265
84.	O'G'ZAKI NUTQNING STRUKTUROVIY VA SEMANTIK	267